

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03.30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

«OILA VA GENDER» ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

SADULLAYEVA JAMILAXON IBODILLA QIZI

**AYOLLARDA MIGRATSIYA MOTIVI NAMOYON BO‘LISHINING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASIAVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UO‘K: 159.9.368.-054.7(072).

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
psychological sciences**

Sadullayeva Jamilaxon Ibodilla qizi

Ayollarda migratsiya motivi namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari..... 3

Садуллаева Жамилахон Ибодилла кизи

Социально-психологические особенности проявления мотива миграции у женщин..... 23

Sadullaeva Jamilakhon Ibodilla kizi

Socio-psychological characteristics of the manifestation of the migration motive in women..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03.30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

«OILA VA GENDER» ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

SADULLAYEVA JAMILAXON IBODILLA QIZI

**AYOLLARDA MIGRATSIYA MOTIVI NAMOYON BO‘LISHINING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/P687raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasida www.tdpu.uz va «ZiyoNet» axborot ta’lim portalidagi (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abdusamatov Xasanboy Usmonjon o‘g‘li**
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Qodirov Umarali Dustqobilovich**
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abdullajanova Dilnozaxon Sultanbekovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03.30.12.2021.P.26.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil «___» _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27. Tel:+99871276-82-32; faks:+99871276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.)
Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi 27. Tel: +99871 276-82-32.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

2025-yil «___» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.T.Nishonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi migratsiya jarayonlari so‘nggi yillarda keskin o‘zgarish sur‘atiga ega bo‘lmoqda. Xalqaro tashkilotlar ma‘lumotlariga ko‘ra, zo‘ravonlik va odam savdosidan jabr ko‘rganlarning qariyb 80 foizini migrant ayollar tashkil etadi. Migrant ayollar uchun jamiyatga reintegratsiya jarayonidagi qiyinchiliklar, jismoniy va ruhiy salomatlikning izdan chiqishi, ijtimoiy izolyatsiya va diskriminatsiya kabi ko‘plab dolzarb muammolar mavjud¹. Xalqaro miqyosdagi statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, migratsiya feminizatsiyasi ilgari kuzatilmagan darajada jadallashmoqda va ayollar ulushi erkaklar ulushiga tobora yaqinlashib bormoqda. Bu holat nafaqat global mehnat bozorida, balki jamiyatning ma‘naviy-axloqiy hayotida, oilaviy rollar taqsimotida hamda qadriyatlar tizimida sezilarli transformatsiyalarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu omillar migratsiya motivlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini chuqur ilmiy tahlil qilish va ular asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi.

Jahon oliy ta‘lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot markazlarida ayollar migratsiya motivini namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlariga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada ayollarni mehnat sharoitida kamsitmaslik uchun gender tenglik va moliyaviy farovonlikka erishishi uchun yangi imkoniyatlarini kengaytirish kabi masalalar ularning mehnatga motivatsiyasini kuchaytirishi bilan birga oilasi, farzandlari, yaqin qarindoshlarida unga nisbatan ishonchni shakillantiradi. Bu esa ayol oilasida nizolarni, ajrimlarni va qarovsiz qolgan bolalarning kamayishiga olib keladi. Demak, ayollarda migratsiya motivatsiyasining namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlarini chuqur tadqiq etish jamiyat uchun rivojlanishni va farovonlikka erishishni ta‘minlaydi. Chunki migrant ayol nafaqat o‘z oilasi balki farzandlari yaqinlari jamiyati uchun ijtimoiy; psixologik tayanch ekanligini his e‘tadi. Shuning uchun ayollar migratsiya motivini namoyon bo‘lishini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishini olib borish dolzarb ahamiyatli bo‘lib qolmoqda. Mazkur ijobiy tendensiyalar muhim omil sifatida ilmiy-amaliy tadqiqi etilishi dolzarb ahamiyatli bo‘lib qolmoqda.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning zaruriy huquqiy asoslari yaratildi: «...biz mehnat migratsiyasi kabi nozik masalaga alohida e‘tibor qaratdik, tizimli hamkorlikni tashkil etish, samarali mexanizmlarni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirdik. Biz hali bu masalada har tomondan zaruriy tartibni yo‘lga qo‘yamiz»². Bu o‘z navbatida ayollarda migratsiya motivi namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ilmiy amaliy tadqiq etishda zaruriy asos bo‘la oladi.

«O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi to‘g‘risida» Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning tarqqiyot strategiyasi

¹ https://publications.iom.int/system/files/pdf/female_migrants.pdf

² <https://tass.ru/ekonomika/20914319>

to'g'risida», 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» 2021-yil 3-fevral PF-6155-son «Aholini ish bilan ta'minlash va mehnat bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlari, 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son «Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risidagi», 2020-yil 15-sentyabrdagi PQ-4829-son «Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida 2018-yil 28-oktyabrdagi PQ-3982-son «Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarorlari va boshqa me'yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston psixolog olimlaridan X.U.Abdusamatov, D.A.Majidova, M.Sh.Bo'riyeva, D.F.Xusanova, A.A.Bazarov, L.M.Saipova, S.K.Alimov, D.A.Djunaydullayev, D.V.Rasulova, F.Y.Parmonovlar va boshqalar migratsiya motivlari va migratsiyani oilaviy munosabatlarga ta'siri, migrant oila farzandlarining xulq-atvoridagi o'zgarishlar, migrant er-xotinlarda hissiy-emotsional buzilish, ziyoli qatlamni migratsiyaga chiqishining jamiyatga ta'siri masalalarini ilmiy tadqiq etganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan migratsiya jarayonlari va yo'nalishlarining oxirgi o'n yilligida ilmiy ish obekti sifatida tadqiq qilish ortib bormoqda. O.I.Brusina, V.V.Konstantinov, O.S.Petrova, S.V.Smirnova, Y.V.Abdullayev, T.N.Kameneva, Y.M.Orlova, T.G.Stefanenko, V.V.Zotov, D.R.Peskova, M.Morokvasik, O.V.Mitina, V.F.Petrenko, S.V.Ryazanseva, S.Y.Sivoplyasova, E.V.Batinova, O.P.Koshulko va boshqalar ayollar migratsiyasini va ayollar migratsiyasini yo'nalishlardan nikoh migratsiyasini ijtimoiy-iqtisodiy motivlarini o'rganishgan.

Xorijlik olimlardan P.Phoyar, K.T.Ober, T.A.Maxonen, O.M.Espin, S.N.Rychikhina, I.B.Korotkova, I.L.Jasinskaja, N.O.Gavrilova, T.Bastia, R.F.Baumeister, Z.Hania, M.R.Islam, M.N.Siddiqovlar va boshqalar tomonidan zamonaviy ayollar mehnat migratsiyasining xarakterli xususiyatlarini ochib berilgan, ammo ayollarda migratsiya motivini namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik jihatlari tadqiq etilmagan, bu esa tadqiqotimizning ilmiy ahamiyatini yanada oshirishga imkon beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsion tadqiqot ishi «Oila va Gender» ilmiy-tadqiqot institutining JHBL-4-sonli "Xotin-

qizlar migratsiyasining sabab va oqibatlari Turkiya misolida” mavzusidagi loyiha doirasida amalga oshirilgan. (2023-2-24y.y)

Tadqiqotning maqsadi: ayollarda migratsiya motivini namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etish orqali migrant ayollarga psixologik yordam hamda qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

xotin-qizlarda mehnat migratsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ichki hamda tashqi migrantlar kesimida tadqiq etish;

xotin-qizlarda mehnat migratsiyasi motivini vujudga keltiruvchi ijtimoiy-psixologik predikatlarni empirik jihatdan aniqlash;

mehnat migranti bo‘lgan va mehnat migranti bo‘lmagan ayollardagi qadriyatlar yo‘nalishi va hayot mazmuni yo‘nalganligini tadqiq etish;

xotin-qizlarda mehnat migratsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash orqali olingan ilmiy-amaliy natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ayollarda migratsiya motivini namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tadqiq etish jarayoni bo‘lib tanlangan tadqiqotda Farg‘ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatidagi mehnat migranti bo‘lgan 137 nafar, migrant bo‘lmagan 164 nafar, Toshkent shahridan 57 nafar ayol jalb qilindi, respondentlarning umumiy soni 358 nafarni tashkil etgan.

Tadqiqotning predmetini ayollarda migratsiya motivini namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashkil etdi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot suhbat, kuzatish, shuningdek amalga oshirishda A.A.Reanning «Muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatdan qo‘rqish motivatsiyasi» metodikasi, M.Rokichning «Qadriyatlar yo‘nalishi» metodikasi, D.A.Leontevning «Hayot mazmuni yo‘nalganligi» metodikasi, R.Plutchik, G.Kellerman, X.Kontelarning «Hayot maromi indeksi» so‘rovnomasi, V.K.Gerbachevskiyning «Intilish darajasi» metodikalaridan foydalanildi. «Ayollarda migratsiya motivi namoyon bo‘lishini o‘rganishga» qaratilgan hammualliflikdagi ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma (X.U.Abdusamatov va J.I.Sadullayeva) laridan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchliligi matematik-statistik metodlardan Mann-Uitni U-mezone, Kraskel-Uollis H-mezone va Spirmenning r – korrelyatsiya koeffitsienti mezone orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

xotin-qizlarda mehnat migratsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ichki hamda tashqi migratsiya faoliyati differentsiatsiyasiga ko‘ra ma‘lumot darajasi, migrantlik muddati, turmush staji asnosida qadriyatlar orientatsiyasi hamda hayot mazmuni yo‘nalganligi omili natijasida integral ravishda identiv namoyon bo‘lishi aniqlangan;

xotin-qizlarda mehnat migratsiyasi motivini vujudga keltiruvchi ijtimoiy-psixologik predikatlarga «natijalarni ahamiyati», «hayot nazorati», «ichki samaradorlik», «sermazmun hayot» kirishi tufayli muvaffaqiyatga intilish hamda muvaffaqiyasizlikdan qochish motivatsiyasining stigmatik ko‘rinish olishi natijasida

mehnat migratsiyasining hayot maromi indeksida psixologik identifikator bo'lishiga diffuz ta'sir etishi dalillangan;

mehnat migranti bo'lgan va mehnat migranti bo'lmagan ayollarda hayot mazmuni yo'nalganligi differensial farqlarga ega bo'lmagani sababli, ma'lumot, etnomadaniy omil ta'siri natijasida ustuvor motivatsion birlik sifatida «hayotiy natijaviylik», «ziyraklik», terminal va instrumental qadriyatlarning situatsiyaviy ta'siri ostida dinamik ko'rinishda integratsionlashuvi isbotlangan;

xotin-qizlarda mehnat migratsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga «moddiy ta'minlanish», «o'ziga ishonchni mustahkamlash», «kuchli iradoviy regulyasiya», «yuqori talablar va ijtimoiy kutushlar» kirishi tufayli aktiv hayot, rivojlanish istagining simulyativ ta'siri natijasida mustaqillik va tafakkur flyuidligi o'z imkoniyatlarini realistik prognozlash hamda natijalar namunasi shakllantirishiga «psixologik akkumulyator» bo'lishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xotin-qizlarda «ichki samaradorlik», «hayot nazorati» va «sermazmun hayot» kabi motivatsion ko'rsatkichlarni oshirish orqali migratsiya qarorlarini ongli va rejalashtirilgan shaklda qabul qilishga yordam beradigan anglangan migratsiya motivini rivojlantirishga qaratilgan treninglar dasturi amaliyotda aprobatsiyadan o'tkazilgan;

ichki va tashqi migratsiya jarayonida ayollarning ma'lumot darajasi, turmush staji hamda qadriyatlar tizimidan kelib chiqib, ularning moslashuv strategiyasini individual tarzda tashkil etishga qaratilgan Respublika miqyosida mahalla xotin-qizlar faollari uchun amaliy tavsiyalar va ish uslublari ishlab chiqilgan hamda amaliyotga kiritilgan.

migrant ayollarga ijtimoiy-psixologik yordam berish maqsadida «Ayollar migratsiyasi: qarorlar, orzular va haqiqat» nomli uslubiy-tavsiyaviy qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida migrant ayollarning migratsiya motivini namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yaxlit ochib beruvchi, jahon psixologiyasida ko'p marotaba foydalanilgan metodikalar qo'llangani hamda amaliy natijalar miqdoriy ko'rsatkichlarining matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilingani, xulosa, taklif hamda tavsiyalarni amaliyotda joriy etilgani va olingan natijalarni tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ahamiyati shundan iboratki, ayollarda migratsiya natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan psixologik xulq-atvor buzilishlarining oldini olish, oiladagi ma'naviy-axloqiy muhitni saqlab qolish, ayollar migratsiyasi ajrimlarga, nizoli holatlarga, bolalarning psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sirini kamaytirishga oid umumlashtirilgan ilmiy xulosalardan oila, ijtimoiy sohalarga psixologik xizmat ko'rsatish yo'nalishidagi tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan xulosa va tavsiyalardan mehnat migratsiyasi zamirida yuzaga keladigan ayollar migratsiyasining muammolarini bartaraf etishda, mahallalarda ayollar bilan ishlovchi xotin-qizlar faollari, nikohlanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash

markazlari, amaliyotchi psixologlar faoliyatida, oilalarga psixologik xizmat ko'rsatish markazlari va boshqa davlat tashkilotlari faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinganligi. Ayollarda migratsiya motivi namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yuzasidan olingan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

xotin-qizlarda mehnat migratsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ichki hamda tashqi migratsiya faoliyati differentsiatsiyasiga ko'ra ma'lumot darajasi, migrantlik muddati, turmush staji asnosida qadriyatlar orientatsiyasi hamda hayot mazmuni yo'nalganligi omili natijasida integral ravishda identiv namoyon bo'lishi aniqlangan ilmiy natijalar «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutining JHBL-4-sonli «Xotin-qizlar migratsiyasining sabab va oqibatlari: Turkiya misolida» loyihasida foydalanildi. «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutining (2025-yil 20-maydagi 01-09/2698-son ma'lumotnomasi). Natijada ayollar mehnat migratsiyasining kelib chiqish sabablari, omillari va oqibatlarini yoritishda ijobiy ta'sir ko'rsatgan;

xotin-qizlarda mehnat migratsiyasi motivini vujudga keltiruvchi ijtimoiy-psixologik predikatlarga «natijalarni ahamiyati», «hayot nazorati», «ichki samaradorlik», «sermazmun hayot» kirishi tufayli muvaffaqiyatga intilish hamda muvaffaqiyasizlikdan qochish motivatsiyasining stigmatik ko'rinish olishi natijasida mehnat migratsiyasining hayot maromi indeksida psixologik identifikator bo'lishiga diffuz ta'sir etishi dalillangan ilmiy natijalar «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutining «Xotin-qizlar migratsiyasining sabab va oqibatlari: Turkiya misolida» loyihasida foydalanildi. «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutining (2025-yil 20-maydagi 01-09/2698-son ma'lumotnomasi). Natijada ayollar migratsiyasining oila instituti deformatsiyasiga ta'sirini tahlil qilish yuzasidan tahliliy ma'lumotlar olishda foydalanilgan;

mehnat migranti bo'lgan va mehnat migranti bo'lmagan ayollarda hayot mazmuni yo'nalganligi differensial farqlarga ega bo'lmagan sababli, ma'lumot, etnomadaniy omil ta'siri natijasida ustuvor motivatsion birlik sifatida «hayotiy natijaviylik», «ziyraklik», terminal va instrumental qadriyatlarining situatsiyaviy ta'siri ostida dinamik ko'rinishda integratsionallashuvi isbotlangan ilmiy natijalar «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutining «Xotin-qizlar migratsiyasining sabab va oqibatlari: Turkiya misolida» loyihasida foydalanildi. «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutining (2025-yil 20-maydagi 01-09/2698-son ma'lumotnomasi). Natijada xorijdan qaytgan ayol mehnat migrantlarini reintegratsiya qilishda keng foydalanilgan;

xotin-qizlarda mehnat migratsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga «moddiy ta'minlanish», «o'ziga ishonchni mustahkamlash», «kuchli iradoviy regulyasiya», «yuqori talablar va ijtimoiy kutushlar» kirishi tufayli aktiv hayot, rivojlanish istagining simulyativ ta'siri natijasida mustaqillik va tafakkur flyuidligi o'z imkoniyatlarini realistlik prognozlash hamda natijalar namunasi shakllantirishiga «psixologik akkumulyator» bo'lishi dalillangan ilmiy natijalar «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutining «Xotin-qizlar migratsiyasining sabab va oqibatlari: Turkiya misolida» loyihasida foydalanildi.

«Oila va gender» ilmiy-tadqiqot institutining (2025-yil 20-maydagi 01-09/2698-son ma'lumotnomasi). Natijada ayollar migratsiyasining oila instituti deformatsiyasiga ta'sirini tahlil qilish yuzasidan tahliliy ma'lumotlar olishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 2 ta xalqaro hamda 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 10 ta ilmiy ish nashr etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi OAK komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari natijalari chop etilishi tavsiya etilgan jurnallarda 4 ta maqola, shu jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, to'qqizta paragraf, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa va tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat Tadqiqot ishining hajmi ilovalardan tashqari 153 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar belgilangan, tadqiqot usullari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda tatbiq etilganlik holati, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «Migratsiya muammosining ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganilishi va ilmiy-nazariy asoslari» deb nomlanib, uchta bo'limdan iborat. Birinchi bo'limda ayollar migratsiyasining ijtimoiy-psixologik muammolari hamda ilmiy tadqiq etish zarurati asoslab berilgan. Olimlardan E.A.Grishnova, E.G.Brintsevaning B.G.Kapasova, R.P.Subedi va M.V.Rosenberg, I X.Zlotnik, olib borgan tadqiqotlarida migratsiya muammosini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining o'rganilishi bayon etilgan.

Ikkinchi bo'limi «Xorij olimlari tomonidan ayollar migratsiyasini o'rganilganligi»ga bag'ishlangan bo'lib P.Phoyar, K.T.Ober, T.A.Maxonen, O.M.Espin, S.N.Rychikhina, I.B.Korotkova, I.L.Jasinskaja, N.O.Gavrilova, T.Bastia, R.F.Baumeister, Z.Hania, M.R.Islam, M.N.Siddiqovlar ayollar migratsiyasini ijtimoiy-psixologik muammolari bilan bir qatorda ruhiy salomatlikka salbiy ta'sirlari yoritilgan tadqiqotlari tahlil qilingan.

Bobning uchinchi bo'limida esa «O'zbek olimlari tomonidan migratsiyasi muammosining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining o'rganilishi»deb nomlanib o'zbek olimlari tomonidan migratsiya muammosini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining o'rganilishi bayon etilgan. Ayollar migratsiyasida psixologik muammolar bilan bir qatorda quydagilarni ham keltirib o'tish joizdir. Ayollarning odam savdosi, jismoniy va jinsiy zo'rovonlikka uchrashi ayollar migratsiyasining eng xavfli muammolaridan biri sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Yashirin, noqonuniy migratsiya esa bu omillarni kuchaytirib yubormoqda. Ayniqsa, bugungi

kunda dunyodagi vaziyatlar, urushlar, siyosiy va ekologik beqarorlik ayollarni majburiy migratsiyaga undamoqda. Bu kabi muammolar global hisoblanib, dunyo hamjihatligi orqali bu muammolar o'z yechimini topishi mumkin. Migratsiya xohishini kam rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar orasida ortishi migratsiya uchun yaratilgan huquqiy va institutsional infratuzilmalar hammaning ham xohishini amalga oshirishni taminlay olmaydi. Natijada nazoratsiz, noqonuniy migratsiya yo'nalishi rivojlanishi ortib boraveradi.

«**Ayollarda migratsiya motivini psixologik xususiyatlari**» sifatida nomlanuvchi dissertatsiyaning ikkinchi bobida ichki migrant ayollarining psixologik xususiyatlari, tashqi mehnat migrant ayollarning hayotiy vaziyatlarda hissiyot, xulq-atvor reaksiyalarining namoyon bo'lishi va mehnat migratsiyasidagi ayollarning qadriyatlarini yo'nalganligi darajasi tahlil etilgan.

Ichki migrant ayollarning ma'lumot darajasi kesimida qadriyatlar tizimi, intilish darajasi va hayot maromi indeksleri bo'yicha statistik farqlar o'rganildi. M.Rokichni «Qadriyatlar yo'nalishi» metodikasidan foydalanganimizda yaxshi sadoqatli do'stlarning borligi shkalasi bo'yicha farqlar aniqlandi. Ichki migratsiyada oliy ma'lumotli ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 17,14 ni tashkil etgan bo'lsa, o'rta ma'lumotlilarda 10,83 natija chiqdi ($U=142,5$; $p<0,05$). Ichki migratsiyadagi oliy ma'lumotli ayollarda yaxshi sadoqatli do'stlarning borligi shkalasining yuqoriligiga sabab ishda, karyerada rivojlanish uchun do'stlarning qo'llab quvvatlashiga nisbatan ehtiyoj va munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'ya olish xususiyatlari shakillanganligi bilan bog'lab izohlash mumkin.

1-jadval

M.Rokichni qadriyatlar yo'nalishi metodikasi bo'yicha ichki migrant ayollarning ma'lumot darajasi kesimida natijalari (N=57)

Shkalalar	O'rtacha rang		Statistik qiymat	
	Oliy (n=31)	O'rta (n=26)	U	p
Yaxshi sadoqatli do'stlar	17,14	10,83	142,5	0,037*
Sermahsul hayot	18,68	9,70	125,5	0,003**
Baxtli oilaviy hayot	9,82	16,20	142,5	0,033*
Mustaqillik	10,05	16,03	144,5	0,047*
Sofdillik	16,95	10,97	144,5	0,047*
Aktiv hayot	16,82	24,12	117,00	0,047*
Kuchli iroda	16,64	24,35	113,00	0,035*
Vazifaning qiyinligi	16,82	11,07	146,00	0,045*
Ratsionalizatsiya	16,84	24,09	117,500	0,047*

*Izoh: * $p<0,05$, ** $p<0,01$*

Navbatdagi sermahsul hayot shkalasi bo'yicha quydagi farqlar kuzatildi: oliy ma'lumotli ichki migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 18,68, o'rta ma'lumotli migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 9,70 ni tashkil qildi. ($U=125,5$; $p<0,01$). Bundan ko'rinib turibdiki oliy ma'lumotli ichki migrant ayollar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun o'z imkoniyati va qobiliyatlaridan unumli foydalana olishi, vaqtni to'g'ri rejalashtirishi hamda kasbiy o'sishga e'tibor qaratishi sabab qilib yuqori natija kuzatildi deb taxmin qilishimiz mumkin. O'rta ma'lumotli ichki migrant ayollarda o'z imkoniyat va qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltira olish

ko'nikmalariga ega emasligi, mustaqil qaror qabul qilishdan qo'rqish hissi past ko'rsatkichga ega bo'lgan deyish mumkin.

Baxtli oilaviy hayot shkalasi bo'yicha oliy ma'lumotli migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 9,82ni o'rta ma'lumotli ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 16,20ni tashkil qildi ($U=142,5$; $p<0,05$). Bundan ko'rinib turibdiki, ichki migratsiyadagi oliy ma'lumotli ayollarda baxtli oilaviy hayot ko'rsatkichlari past bo'lib, karyera, ijtimoiy munosabatlar, shaxsiy va kasbiy o'sishga intilish sabab oilaga, bolalarga kam vaqt ajratishini ko'rsatish mumkin. Shu sababli ular hayotini mazmunini oilasi bilan ko'proq bog'lashadi. O'rta ma'lumotli ayollar, asosan, oila a'zolari yoki turmush o'rtog'iga hamroh sifatida ichki migratsiya jarayonida ishtirok etadi.

Mustaqillik shkalasi bo'yicha oliy ma'lumotli migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 10,05ni ko'rsatgan bo'lsa, o'rta ma'lumotli migrantlarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 16,03 ($U=144,5$; $p<0,05$) tashkil qildi.

2-jadval

V.K. Gerbachevskiyning shaxs intilish darajasi va D.A.Leontevning «Hayot mazmuni yo'nalganligi» metodikalari natijalari (N=57)

Shkalalar	O'rtacha rang			Statistik qiymat	
	1-5 yillik (n=17)	6-10 yillik (n=19)	11-16 yillik va undan yuqori (n=21)	H	Ishonch darajasi
Natijalarning ahamiyati	25,82	13,30	22,81	8,950	0,011*
Nazorat lokusi -men	14,55	19,67	25,00	7,064	0,030*
Hayot jarayoni	23,72	32,46	30,92	3,772	0,033*

Izoh: * $p<0,05$.

Natijani ahamiyati shkalasi hozir olib borilayotgan ishni natijasi respondentga qanchalik muhimlik darajasini aniqlab beradi. 1-5 yillik turmush muddatiga ega ichki migratsiyadagi ayollarda natijaning yuqoriligini faoliyatini shaharga adaptatsiya bo'lish, yangi ishda hurmat qozonish, yangi do'stlar orttirish motiviga qaratgani bilan izohlash mumkin. 6-10 yillik turmush davomiyligiga ega migrantlarda natijaning pastligini yuqoridagi ehtiyojlarning qondirilishi natijasida beparvolik, yoshga oid psixologik krizislar sabab bo'lishi mumkin deb izohlash mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan jadvalda hayot mazmuniga yo'nalganlik testining nazorat lokusi-men shkalasi bo'yicha turmush davomiyligi bir yildan besh yilgacha bo'lgan ichki migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 14,55 ni, turmush davomiyligi 6-10 yilgacha bo'lgan ichki migratsiyadagi ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 19,67 ni, 11-16 va undan yuqori turmush stajiga ega ichki migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 25,00 ni tashkil qildi ($H=7,064$; $p<0,05$). Bundan ko'rinib turibdiki, turmush stajiga 1-5 yil bo'lgan ichki migratsiyadagi ayollarda nazorat lokusi-men shkalasi bo'yicha past natija aniqlandi, chunki yangi muhitga moslashishdagi qiyinchiliklar ularga mustaqil qaror chiqarishga, o'zini ongli nazorat qilishga, o'z muvoffaqiyat va muvoffaqiyatsizligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishga xalaqit beradi. Turmush staji 11-16 va undan yuqori bo'lgan ayollarda yuqori natija ko'rsatishiga sabab sifatida o'z hayoti uchun mas'uliyatni

o‘z zimmasiga olish ko‘nikmasining mavjudligi, mustaqil qaror chiqarish va tanlash erkinligi xususiyatlarni shakillangani bilan bog‘lash mumkin.

Hayotiy jarayon shkalasi tahlili natijalariga ko‘ra 1-5 yillik turmush muddatiga ega ichki migrant ayollarda o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 23,72 ni, 6-10 yillik turmush stajiga ega ayollarda o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 32,46 ni, 11-16 va undan yo‘qori turmush muddatiga ega ayollarda o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 30,92 ni tashkil qildi ($H=3,772; p<0,05$). Turmush davomiyligi 1-5 yil bo‘lgan ichki migrant ayollarda natijani past chiqishiga sabab sifatida o‘zidan va moddiy holatidan qoniqmaslik, sayohat qilish, hissiy-emotsional saguzashlarga qiziqish motivi ustunlik qilishi deb taxmin qilish mumkin, 6-10 yillik turmush muddatiga ega ayollarda natijaning yo‘qoriligi hayotni real holda idrok qilish jarayonini boshlangani bilan bog‘lash mumkin. Bu vaqtga kelib moddiy ehtiyojlardan salomatlikni, yaqinlarining borligini, hayotda yashashning o‘zi baxt ekanligini anglashi va hayotiy qarashlari va harakatlari ham fikrlarning o‘zgarishiga mos holda o‘zgarib borishi haqidagi farazimizga bog‘ladik

Tadqiqotimizda migrant ayollarning demografik ko‘rsatkichlari ijtimoiy so‘rovnoma doirasida o‘rganildi va quydagi natijalar olindi.

3-jadval

Migrant ayollarning oilaviy holat bo‘yicha IPS (so‘rovnoma) demografik natijalari.

Mulohazalar	Ichki migrantlar Soni (57nafar)	Foiz ko‘rsatkichi (%)	Tashqi migrantlar Soni (137nafar)	Foiz ko‘rsatkichi (%)
Turmush qurgan	39 nafar	68,42%	78nafar	56,93%
Turmush qurmagan	13 nafar	22,8%	35nafar	25,55%
Ajrashgan	4nafar	7,02%	17nafar	12,41%
Beva	1nafar	1,75%	7nafar	5,11%
Jami:	57 nafar	100,0%	137nafar	100,0%

Oilaviy holati bo‘yicha migrant ayollarning ijtimoiy-psixologik tahlil qilganimizda quydagilar aniqlandi. Ichki va tashqi migrant ayollar orasida turmush qurganlar eng ko‘p bo‘lib, ularni oilaviy mas‘uliyat va barqarorlikni saqlashga intilish migratsiyaga undamoqda deyish mumkin. Ajrashgan ayollar tashqi migrantlarda biroz ko‘proq bo‘lib 12,41%, ular iqtisodiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga, hamda, hayotini qayta “tiklash” maqsadida migratsiyaga intilishadi.

4-jadval

D.A.Leontevni hayot mazmuni yo‘nalishi metodikasi bo‘yicha migrant ayollarda ma‘lumotlilik darajasiga ko‘ra natijalari (N=137)

Shkalalar	O‘rtacha rang		Statistik qiymat	
	Oliy ma‘lumotlilik(n=41)	O‘rta ma‘lumotlilik(n=96)	U	P
Hayotiy maqsadlar	78,23	68,03	686	0,377
Hayot jarayoni	85,69	37,25	189	0,010**
Hayotning natijaviyligi	78,27	68,03	685	0,374
Nazorat lokusi – men	69,96	68,90	793	0,927
Nazorat lokusi – hayot	87,27	57,08	368	0,040*

Izoh: $p<0,05$; $p<0,01$

Migrant ayollarda ma'lumotlilik darajasiga ko'ra, hayot mazmuni yo'nalganligi metodikasi natijalari bo'yicha quydagi natijalar aniqlandi: jadvalimizdagi hayotiy maqsadlar shkalasi bo'yicha oliy ma'lumotli migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 78,23 ni, o'rta ma'lumotli migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 68,03 ni tashkil qildi ($U=686,000$; $p>0,05$). Natijalarga ko'ra maqsadga intiluvchanlik ko'rsatkichi oliy ma'lumotli migrant ayollarda o'rta ma'lumotli migrant ayollarga nisbatan yuqoriligini ko'rish mumkin. Ammo oliy va o'rta ma'lumotli migrantlarda maqsadlar bilan bog'liq qarashlari o'xshashligi, turmush sharoitlari yoki migratsiya jarayoni ularning maqsadlariga ta'sir qilmasligi sababli ishonchli farqlar aniqlanmadi. Bu natija shaxsning hayotiy maqsadlarining shakllanishida tashqi sharoitlardan ko'ra, individual psixologik omillarning katta rol o'ynashini ko'rsatadi.

Hayot jarayoni shkalasi bo'yicha oliy ma'lumotli migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 85,69 ni va o'rta ma'lumotli migrant ayollarda o'rtach rang ko'rsatkichlari 37,25 ni tashkil qildi ($U=189,000$; $p<0,01$). Natijalarga ko'ra migrant ayollar hayot jarayonini ancha yuqori baholaydilar, ya'ni ular hayotdagi o'zgarishlarga, jarayonlarga va vaziyatlarga ko'proq ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega deb his qilishadi. Bu ularning migratsiya jarayonidagi adaptatsiya va yangi sharoitlarga moslashish qobiliyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Hayotning natijaviyligi ($U=685,500$; $p>0,05$) va nazorat lokusi men ($U=793,500$; $p>0,05$) shkalalari bo'yicha oliy va o'rta ma'lumotli migrant ayollarda ishonchli farqlar aniqlanmadi.

5-jadval

D.A.Leontevni hayot mazmuni yo'nalishi metodikasi bo'yicha migrant ayollarning viloyatlar kesimida natijalari (N=137)

Shkalalar	O'rtacha rang			Statistik qiymat	
	Surxondaryo (n=38)	Samarqand (n=46)	Farg'ona (n=53)	H	p
Hayotdagi maqsadlar	79,09	67,92	68,23	0,778	0,678
Hayot jarayoni	91,18	76,16	62,18	7,330	0,026*
Hayotning natijaviyligi	62,18	91,18	76,16	7,330	0,026*
Nazorat lokusi – men	74,91	61,14	72,43	2,606	0,272
Nazorat lokusi – hayot	84,27	68,31	67,32	1,798	0,407

Izoh: *- $p<0,05$


Migrant ayollarda hayot mazmuni yo'nalishi bo'yicha viloyatlar kesimida respondentlarning javoblari tahlil qilinganda quydagi natijalar olindi. Hayotdagi maqsadlar shkalasi bo'yicha Surxondaryo viloyati migrant ayollarida o'rtacha rang ko'rsatkichi 79,9 ni, Samarqand viloyati migrant ayollarida o'rtacha rang ko'rsatkichi 67,92 ni Farg'ona viloyati migrant ayollarida o'rtacha rang ko'rsatkichi 68,23 ni tashkil qildi ($H=0,778$; $p>0,05$). Hayotdagi maqsadlar shkalasi bo'yicha ishonchli farq aniqlanmadi. Demak, viloyatlardan tadqiqotimizda qatnashgan migrant ayollarning hayotiy maqsadlarida o'xshashlik mavjud. Yashab o'tayotgan umridan qoniqish, natijalarini tog'ri tahlil qilib harakat qilish darajasi bo'yicha viloyatlar kesimida ishonchli farq aniqlandi.

Jadvalimizning keyingi hayot jarayoni shkalasini tahlil qilganimizda ishonchli farqlar aniqlandi. Natijalarga ko‘ra, Surxondaryo viloyati migrant ayollarida o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 91,18 ni, Samarqand viloyati migrant ayollarida o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 76,16 ni va Farg‘ona viloyati migrant ayollarida o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 62,18 ni tashkil qildi ($H=7,330$; $p<0,05$). Imperik tahlil natijasiga ko‘ra, Surxondaryolik migrant ayollar hayotdan ematsional qoniqish darajasi samarqand va farg‘onalik migrant ayollarga nisbatan yo‘qoriligini ko‘rish mumkin.

Hayotning natijaviyligi shkalasi bo‘yicha Surxondaryo viloyati migrant ayollarida o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 91,18 ni, Samarqand viloyati migrant ayollarida o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 76,16 ni va Farg‘ona viloyati migrant ayollarida o‘rtacha rang ko‘rsatkichi 62,18 ni tashkil qildi ($H=7.330$; $p<0,05$).

Surxondaryo viloyatidagi migrant ayollarda natijalar yuqoriligiga sabab sifatida ijtimoiy kelib chiqishi va etnopsixologik xususiyatlar bilan bog‘ladik. Viloyatlar kesimida nazorat lokusi – men ($H=2,606$; $p>0,05$) va nazorat lokusi–hayot ($H=1,798$; $p>0,05$) shkalalari bo‘yicha olingan natijalarda ishonchli farq aniqlanmadi. Ammo maqsadga intiluvchanlik, rejalarini real hayotga tatbiq etish, o‘tayotgan vaqtini sermahsul bo‘lishiga e‘tibor qaratish surxondaryolik migrant ayollarda nisbatan yuqori ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

Tadqiqotda o‘tkazilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnomaning ayollar migratsiya motivini aniqlashga qaratilgan ijtimoiy fikrlarni tahlil qilish bizda ayollarning migratsiyaga ketish qarorining muhim ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun yo‘l ochadi.




1-rasm « Migratsiya qaroringizga eng ko‘p kim ta’sir ko‘rsatadi?» savolga berilgan javoblar (%)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tashqi migrant ayollar «Migratsiya qaroringizga eng ko‘p kim ta’sir ko‘rsatadi?» savoliga eng katta ulushda «mustaqil qaror qabul qilaman» 47 nafar (34,31%) javobini bildirgan. Ushbu ko‘rsatkich ayollarning shaxsiy erkinligi, hayotiy maqsadlarini mustaqil belgilashga intilishi va o‘zini namoyon etish motivlarining kuchliligidan dalolat beradi. Keyingi o‘rinlarda «turmush o‘rtog‘im» 38 nafar (27,74%) hamda «ota-onam» 30 nafar (21,90%) ta’siri qayd etilgan bo‘lib, bu natijalar muhim hayotiy qarorlar, xususan, xorijga chiqish masalalarida yaqin oila a‘zolari bilan maslahatlashish va ularning roziligini olish an‘anasining saqlanib qolganini ko‘rsatadi.

«Do'stlar ta'siri» javobini 22 nafar (16,05%) tashqi migrant ayollar belgilaganligidan do'stlar, tanish-bilishlarning ta'siri ham sezilarli darajada ekanligini taxmin qilish mumkin.

Ichki migrant ayollarda esa eng ko'p ko'rsatkichlarni «ota-onam» 20 nafar (35.09%) va «turmush o'rtog'im» 22 nafar (38.60%) javoblari egalladi. Bu holat O'zbekiston ijtimoiy-psixologik muhitida oila institutining yetakchi o'rin tutishini yaqqol ko'rsatadi



2-rasm «Migratsiya orqali hayotingizni ijobiy o'zgartirish imkoniga qanchalik ishonasiz?» savoliga berilgan javoblar (%).

So'rovnomadagi «Migratsiya orqali hayotingizni ijobiy o'zgartirish imkoniga qanchalik ishonasiz?» nomli savolga tashqi migrant ayollarda «to'liq ishonaman» javobi 71 nafar (51,82 %) bo'lib, bu migratsiya jozibadorligini oshishiga va xavfli tomonlarini o'ylab ko'rmaslikka olib kelmoqda deyish mumkin. «Qisman ishonaman» javobini 47 nafar (34,31%) ayollar belgilagan bo'lib, ular ijobiy istiqbollarga ishonish bilan birga moslashish jarayoni va qiyinchiliklarni hisobga olgan holda migratsiyani tanlashadi. Shuningdek, «ishonmayman» 12 nafar (8,76 %) va «umuman ishonmayman» 7 nafar (5,11%) javoblarini belgilashgan. Bu so'rovnoma xulosasiga ko'ra ayollar migratsiyani hayotini o'zgartiruvchi yo'l deb hisoblashi ma'lum bo'ldi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ichki migrant ayollarning 23nafari (40,35 %) migratsiya orqali hayotini ijobiy o'zgartirish imkoniga «to'liq ishonadi», 24 nafar (42,11%) esa «qisman ishonadi». Bu ko'rsatkichlar ichki migratsiya sharoitida qaror qabul qilish jarayonining ko'p hollarda ehtiyotkor optimizmga asoslanishini anglatadi. Ichki migrant ayollar orzularini migratsiyaga bog'laganini javoblardan ko'rish mumkin. «Ishonmayman» 6 nafar (10,53 %) va 4 nafar (7,01 %) «umuman ishonmayman» javoblaridagi ko'rsatkichlar pastligi migratsiya ayollar orasida ijobiy tushuncha hosil qilganligidan deb hisoblash mumkin. Bu esa migratsiyani yanada ayollar orasida o'sib borishini anglatadi.

Dissertatsion tadqiqot ishining uchinchi bobi «**Ayollarda migratsiya motivi namoyon bo'lishining empirik tahlili**» deb nomlanib, unda migrant ayollarda mehnat motivi namoyon bo'lishining empirik-statistik tahlili, migrant ayollarda hayot maromi indeksning yo'nalganlik darajasi hamda o'tkazilgan tadqiqot natijalarining korrelyatsion xususiyatlari bayon qilingan.

6-jadval

R.Plutchik, G.Kellerman, X.Kontelarni hayot maromi indeksi metodikasi bo'yicha migrant va migrant bo'lmagan ayollarning natijalari(N=301)

Shkalalar	O'rtacha rang		U	p
	Migrant ayollar (n=137)	Migrant bo'magan ayollar(n=137)		
Ratsionalizatsiya	162,97	141,00	9594,000	0,028*

Izoh: *- $p < 0,05$

Migrant va migrant bo'lmagan ayollarda siqib chiqarish, regressiya, o'rin almashtirish, inkor qilish, proeksiya, kompensatsiya, geperkompensatsiya shkalalarida ishonchli farqlar ko'zatladi, ammo migrant ayollarda o'rtacha qiymat ko'rsatkichlari yo'qori chiqqanini kuzatish mumkin. Shuningdek, jadvalimizning ratsionalizatsiya shkalasi bo'yicha ishonchli farq aniqlandi. Migrant bo'lmagan ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 141,00 ni va migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 162,97 ni ($U=9594$; $p < 0,5$) ni tashkil qildi. Eng konstruktiv himoya mexanizmlaridan biri bu ratsionalizatsiya hisoblanadi. Migrant ayollarda ratsionalizatsiyani yuqori bo'lishiga sabab, ulardagi mas'uliyatning kattaligi deb izohlash mumkin, chunki oilasini moddiy ta'minlash, o'zga davlat qoidalariga rioya qilish, nizoli vaziyatlarda o'z psixik salomatligini saqlab qolish orqali muommoning yechimini topishga undaydi.

7-jadval

V.K.Gerbachevskiyning intilish darajasi metodikasi bo'yicha migrant ayollarning viloyatlar kesimida natijalari (N=137)

Shkalalar	O'rtacha rang			Statistik qiymat	
	Surxondaryo vil (n=38)	Samarqand vil (n=46)	Farg'ona vil(n=53)	H	p
Vazifaning qiyinligi	73,91	56,43	75,09	6,610	0,037*
Iroda kuchi	74,09	80,58	62,10	6,512	0,039*
Natijalarni baholash	50,95	47,88	82,76	24,884	0,000**
Natijalar namunasi	59,50	55,68	77,42	9,432	0,009**
Tashabbuskorlik	46,91	55,39	79,27	14,417	0,001**


Izoh: *- $p < 0,05$, ** $p < 0,01$

Tadqiqotimizdagi viloyatlar kesimidagi sinaluvchilarini intilish darajasi testi bo'yicha olingan natijalar tahlil qilinganda ham viloyatlar kesimida farqlar kuzatildi. Quyidagi jadvalimizning vazifaning qiyinligi shkalasida quyidagi ishonchli farqlar kurish mumkin. Surxondaryo viloyatidagi migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 73,91 ni, Samarqand viloyatidagi migrant ayollarda o'rtacha rang ko'rsatkichi 56,43 ni va Farg'ona viloyati migrant ayollarida 75,09 ni tashkil qildi ($H=6,610$; $p < 0,05$). Farg'ona viloyati migrant ayollarida vazifaning qiyinligi shkalasi bo'yicha natijani yuqori bo'lishini farg'onalik ayollarga xos bo'lgan ehtiyotkorlik, mulohazakorlik, uddaburonlik xususiyatlari bilan bog'lash mumkin. Samarqand viloyati migrant ayollarida natijani past ekanligini murakkab va qiyin vazifalar maqsad sari intilishdan to'xtata olmasligini xulosa qilish mumkin.

